

MOLIYAVIY SAVODXONLIK DARAJASI VA UNING IJTIMOIIY AHAMIYATI**Qo‘shnazarova Sevinchoy Baxtiyor qizi***Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti talabasi***Ilmiy maslahatchi: Otaxonova Dinora Musaboy qizi***Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada moliyaviy savodxonlik tushunchasi, uning jamiyat rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada aholining moliyaviy savodxonlik darajasi, uni shakllantirish omillari hamda past savodxonlikning iqtisodiy hayotga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, moliyaviy ta’limni rivojlantirish orqali shaxsiy va milliy farovonlikka erishish yo‘llari haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot natijalari moliyaviy bilimlarni oshirish fuqarolarning iqtisodiy faolligini kuchaytirishi, jamg‘arma ma’natini rivojlantirishi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy tizimni shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy ta’lim, farovonlik, jamiyat, barqaror rivojlanish, iqtisodiyot, amaliy ko‘nikmalar, moliyaviy savodxonlik loyihalari.

Abstract. This article analyzes the concept of financial literacy, its role, and significance in the development of society. It discusses the level of financial literacy among the population, the factors influencing its formation, and the impact of low financial awareness on economic life. The paper also explores ways to achieve personal and national well-being through the development of financial education. The results of the study show that improving financial knowledge enhances citizens’ economic activity, promotes a culture of saving, and contributes to the formation of a stable socio-economic system.

Keywords: Financial literacy, economic education, well-being, society, sustainable development, economy, practical skills, financial literacy projects.

KIRISH

O‘zbekiston mustaqillik yillarida ijtimoiy bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashuvi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash talablari aholining moliyaviy savodxonligini shakllantirish va uni oshirish zarurligini isbotlamoqda. Jahon amaliyotining ko‘rsatishicha aholi o‘z mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanish, o‘z xarajatlari va jamg‘armalarini rejalashtirish, investitsiyalashni ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, favqulotdagi vaziyatlar uchun zarur bo‘lgan mablag‘ jamg‘arish borasida yetarli darajada bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmaganliklari sababi, samarasiz qarorlar qabul qilishadi va

o'zlarining moddiy farovonligini oshirish uchun salohiyatlaridan, imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydilar. Kishilarni qabul qilayotgan moliyaviy qarorlarining samaradorligini oshirish uchun aholining moliyaviy savodxonligi tizimini joriy etish zarur.

Moliyaviy savodxonlik rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda yanada shaffof, sog'lom va barqaror iqtisodiyotga intilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Moliyaviy savodxonlik- shaxsiy moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish (kirim-chiqim) va investitsiyalarni o'z ichiga olgan turli xil moliyaviy ko'nikmalarni tushunish va samarali ishlatish qobiliyatidir. Istalgan moliyaviy maqsadlarga erishish uchun aholining daromad topish, sarflash, tejash, qarz va investitsiyalar bo'yicha savodxonlik darajasi yuqori bo'lishi muhim hisoblanadi. Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo'lishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, o'z moliyaviy resurslarini to'g'ri joylashtira olmasligi mumkin. Mavjud moliyaviy bozor instrumentlaridan maqsadli foydlana olmasligi oqibatida esa kambag'allik yoki o'rta hol turmush darajasidan yuqori pogo'naga chiqishi murakkablashadi. Jamiyatda insonlarning moliyaviy savodxonligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy xizmatlarning ortishi aholining savodxonlik darajasi yuqori bo'lishini talab etadi.[2]

Bu esa moliyaviy savodxonlikni mamlakatning uzoq muddatga mo'ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin egallashini aks ettiradi. Oxirgi 10 yillikda moliya bozorida iste'molchilar sektorini kengayishi, moliyaviy mahsulotlar turlari va murakkabligini ortishi, aholi daromadlari va yalpi jamg'armalarining o'sishi aholining qabul qilgan moliyaviy qarorlarida shaxsiy javobgarlikni ortganligini aks ettiradi. Ushbu holat ham aholi moliyaviy savodxonligini oshirish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning dolzarbligi quyidagi sabablar bilan belgilanadi:

1. Aholining daromad manbalari tarkibining o'zgarishi. Aholi daromadlari tarkibida kichik biznes, oilaviy va individual tadbirkorlikdan olinadigan daromadlar ulushini ortib borishi jamg'arma va investitsiyalarni samarali boshqarish va xarajatlarni to'g'ri rejalashtirishga bo'lgan ehtiyojini Keskin ortishiga olib keladi.

2. Ko'p sonli xususiy tadbirkorlarni paydo bo'lishi. Bunday tadbirkorlar kundalik ish faoliyatida turli boshqaruv masalalarini yechadilar: moliyaviy oqimlarni va moddiy aktivlarni boshqarish, moliyaviy hisobga olish, daromad va xarajatlarni rejalashtirish, sug'urta fondlarini shakllantirish, moddiy resurslarni sotib olishni optimallashtirish, bank xizmatidan foydalanish, jamg'armalarni investitsiyalash, kreditlar olish, qarzni boshqarish kabilar shular jumlasidandir.

3. Aholini uzoq muddatli jamg‘armalarga va kredit olishga bo‘lgan ehtiyojini keskin ortishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg‘arishning quyidagi funksiyalarni mustaqil amalga oshirishi lozim: qo‘shimcha pensiya jamg‘armalarini amalga oshirish, tibbiyot, ta‘lim xizmatlariga to‘lash uchun jamg‘arish. Yuqoridagi holatlar oila budjetini uzoq muddatli rejalashtirishni, risklarni moliya dastaklar (sug‘urtalash, pensiya jamg‘armalari, bank depozitlari va qimmatli qog‘ozlarni investitsiyalash) orqali baholash va boshqarishni talab etmoqda. Shunday qilib, uzoq muddatli jamg‘armalarni shakllantirish va kredit olish ko‘nikmalariga o‘qitish aholining moliyaviy savodxonligining muhim funksiyasi hisoblanadi.

4. Shaxsiy jamg‘armalarni investitsiyalash va moddiy aktivlarini boshqarish imkoniyatlarini kengayishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi jamg‘armalari va investitsiyalashini amalga oshirishning turli muqobil usullari vujudga keladi. Banklar va boshqa moliya institutlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlardan unumli foydalanish uchun kreditlarni boshqarish, investitsiyalashni amalga oshirish, to‘g‘ri samarali qarorlar qabul qilish uchun aholi moliyaviy savodxon bo‘lishi lozim.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha davlatlar tomonidan ishlab chiqilayotgan turli strategiya, konsepsiya, dastur va chora-tadbirlarni mukammal ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etishda moliyaviy savodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

“Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a‘zo mamlakatlar aholisining 56,8 foizi moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan so‘rovnamlarda minimal ball to‘plagan” [3]

O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasiga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 11-iyuldagi qaroriga muvofiq “O‘zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish” loyihasi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Jahon banki guruhi moliyalar va bozorlar bo‘yicha departamentining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo‘yicha loyihasi (ACAFI) hamkorligida SSP trenerlari va xodimlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo‘yicha dastur, 2018-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Savdo-sanoat palatasi va “Norma” professional rivojlanish markazi tomonidan “Tadbirkorlar va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish” dasturi yo‘lga qo‘yilgan. 2018-yil 17-avgustda O‘zbekiston Markaziy banki Boshqaruvi Moliyaviy ommaboplik alliansiga (Alliance for Financial Inclusion) a‘zo bo‘lish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida “gi PF-60-son farmonlari, 2019-yil 23-iyuldagi “Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-400-son qarori, Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasini ishlab chiqish va kelgusida amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tasdiqlangan “2021-2023-yillarga mo‘ljallangan Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasi” va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish aholi moliyaviy savodxonligini yuksaltirishda davr talabidir.

O‘zbekiston Respublikasi aholisining moliyaviy savodxonligini oshirish maqsadida hukumat, Markaziy bank va boshqa turli banklar qator samarali tadbirlar, dasturlar ishlab chiqmoqda. Bu amaliy vazifalar qatorida, moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadida Markaziy bank huzurida “Moliyaviy savodxonlik va ommabopligini oshirish departamenti” tashkil etildi va ularga quyidagi vazifalar berildi:

5. Aholi va tadbirkorlikning moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish strategiyasini ishlab chiqish hamda uning doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish;


6. Bank tizimi strategik vazifalari hamda rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari asosida Markaziy bank va tijorat banklari xodimlarining kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalarini oshirishni ta‘minlash.

Aholi qatlamini moliyaviy huquqlarini bilishi, moliyaviy imkoniyatlaridan keng foydalana olishlari uchun “Moliyaviy savodxonlik va ommabopligini oshirish departamenti” tomonidan “Flint.uz- moliyaviy savodxonlik” platformasi tashkil etildi va bu platforma orqali aholiga so‘nggi moliyaviy yangiliklar va imkoniyatlar e‘lon qilinib kelinmoqda.[4]

Shu kabi ko‘plab tadbirlar qatorida quyidagilar ham amalga oshirildi. Markaziy bank “Butunjahon pul haftaligi” (Global Money Week 2024) doirasida “Pullaringizni himoya qiling. Kelajagingizni ta‘minlang” mavzusida videoroliklar tanlovini e‘lon qiladi.[5]


- “Hamkorbank” ATB tomonidan “Qishloq joylarda ayol-tadbirkorlarni moliyaviy savodxonlikka oshirish” loyihasi o‘tkazildi.

- “Hamkorbank” ATB tomonidan “Mening moliyaviy savodxonligim” kitobchasi ishlab chiqildi. Ushbu kitobcha tadbirkorlik faoliyatini olib boorish, tadbirkorlikning mulkchilik shakllarining turlari, davlat ro‘yxatidan o‘tish jarayoni, soliqqa tortish, tijorat banklari bilan ishlash, tadbirkorlar uchun bank mahsulot va xizmatlari to‘g‘risidagi kerakli ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan.[5]



1-rasm. OECD sayti ma'lumotlariga ko'ra MDH davlatlarida moliyaviy savodxonlik darajasi.

OECD saytining 2021-yil ma'lumotlariga ko'ra, MDH davlatlarining moliyaviy savodxonlik darajasi 55,9% ni tashkil etadi.[6] 2017-yilda esa bu ko'rsatkich 56,5% ni ko'rsatib turgan edi. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichi bo'yicha MDH davlatlari orasida 59,9% bilan Belarus davlatidan keying 2-o'rinni band qildi.



2-rasm. O'zbekiston aholi moliyaviy savodxonligining yosh tarkibi (2021-yil).

Organization for Economic Co-operation and Development (OECD) saytining 2021-yil uchun bergan ma'lumotlariga binoan, o'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi, moliyaviy bilimlar va moliyaviy resurslarni boshqarish darajalaridan ko'ra ancha yuqori.[5] Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, turli yosh guruhlarida o'rtasida moliyaviy

savodxonlik darajasi katta farq qilmaydi. O'rta yoshdagilar moliyaviy bilimlar bo'yicha (3,7) eng yuqori natijani ko'rsatgan bo'lsa, yoshlar va keksalarda bu ko'rsatkich 3,5 ni tashkil etadi. Moliyaviy resurslarni boshqarishda esa yoshlar (3,0) nisbatan faolroq, keksalarda esa eng past daraja (2,7) kuzatilgan. Umuman olganda, moliyaviy savodxonlik darajasi barcha guruhda deyarli bir xil bo'lib, yoshlar 12,3, o'rta yoshdagilar 12,7, keksalar esa 12,6 ballni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar, o'z navbatida, yoshlar o'rtasida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha maqsadli milliy strategiyani ishlab chiqish zarurligini bildiradi.

Insonlarda moliyaviy savodxonlikning yuqori darajada bo'lishi to'g'ri investitsiya qilishi, doimiy daromad manbaini shakllantirishda hamda keksalikda o'zining moddiy ehtiyojlarini qoplashi uchun aql bilan tadbirli ish tutushini ta'minlaydi. Aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy ahamiyati ham bor. Chunki, shaxsning moliya borasidagi bilim va ko'nikmalari natijasida butun jamiyat iqtisodiy hayotining muvaffaqiyati va barqarorligini belgilab beradi. Aholining moliyaviy jihatdan savodsizligi nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun moliyaviy sohaga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, fuqarolarning o'z daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki noto'g'ri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzdorlik paydo bo'ladi, moliyaviy piramidalar va firibgarliklar sonining oshishiga olib keladi. Global miqyosda bu mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin. Insonlar boyligini, uning ilmsizligi, yetarli ma'lumotga ega emasligi, haq-huquqlarini yaxshi bilmasligidan foydalangan holda osonlikcha o'zlashtirish, aldov va firibgarlikdan foydalanish uzoq o'tmishdan davom etib kelmoqda. Ayniqsa, texnika va texnologiyalar rivojlangan davrda bu narsa yanada takomillashganligi bois moliyaviy xizmatlarning ishonarli yoki ishonarsiz manbalardan taklif etilayotganligini aniqlash imkoniyati juda murakkablashgan. Har qanday inson telefoniga kelgan aldov SMS-xabarlar yoki o'ta professional darajada o'zlarini reklama qilish orqali firibgarlikka qurilgan har xil (biznes piramidalar, virusli dasturlar, soxta tadbirkorlar, soxta yutuqli o'yinlar va hokazo) xizmatlarning qurboniga aylanib qolishi mumkin. Insonning ma'lum soha bo'yicha ilm va tushuncha olishida ta'lim eng muhim tizim hisoblanadi. Yoshlarning moliyaviy savodxonligini asta-sekin ta'lim davrida oshirib borish samarali natijadir. Shuning uchun ham Prezidentimiz bunga alohida to'xtalib "Bunda 1-sinfdan kompyuter savodxonligi, yuqori sinflarda moliyaviy savodxonlik darslari joriy etiladi" deb ta'kidlab o'tdilar.[7] Yana ahlining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha bir qancha trening mashg'ulotlari ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Markaziy bank tomonidan Xalqaro migratsiya tashkiloti bilan birgalikda mehnat migrantlari uchun moliyaviy savodxonlik bo'yicha treninglar o'tkazildi".[8]

Mahalliy hokimyat, ish beruvchilar, mahalla faollari bu borada yanada mas’uliyatli bo‘lishlari lozim, chunki har qanday moliyaviy yo‘qotish bir oila uchun bu o‘sha hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga sekin asta ta’sir qilib boradi. Uy xo‘jaliklari, oilalar va shaxslarga o‘z byudjetlarini shakllantirish va rejalashtirishga oid bilim hamda ko‘nikmalarni muntazam berib borishning universal usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.V. Vaxabov, SH.A. Toshmatov, N.X. Haydarov Moliyaviy savodxonlik asoslari - Toshkent 2013.
2. A.V Vaxobov, O.S. Do‘smuhammedov Moliyaviy savodxonlik tushunchasining nazariy asoslarini takomillashtirish. //Iqtisod va moliya, 2022. - № 3-5. – B.3
3. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvari PF-60-son Farmoni. Lex.uz
4. Mikromoliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyul PQ-4400-son Qarori. Lex.uz
5. <https://www.spot.uz/oz/2022/07/24/financial-literacy/>
6. <https://finlit.uz/uz/>
7. https://aloqabank.uz/uz/press_center/news/moliyaviy-savodxonlik-zamonaviy-yoshlarning-zarur-ko-nikmasi/
8. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-infe-2023-international-survey-of-adult-financial-literacy_56003a32-en.html
9. <https://m.aniiq.uz/uz/yangiliklar/1-sinfdan-kompyuter-savodxonligi-yuqori-sinflarda-moliyaviy-savodxonlik-darslari-joriy-etiladi>
10. <https://lex.uz>